

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....	10
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	17
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	21
<b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....	26
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....	34
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	40
<b>Akramova Feruza</b>	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52
<b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....	59
<b>Nazarov Elbek</b>	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....	66
<b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....	70
<b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI .....	77
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	82
<b>Normamatov A. A.</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....	87
<b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	94
<b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	101
<b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
<b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>	
SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....	113
<b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	119
<b>Normamatov A. A.</b>	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
<b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	128
<b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
<b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
<b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	145
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
<b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....	157
<b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH .....	164
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi</b>	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
<b>Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim</b>	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
<b>Ganiyev Botir Baxtiyorovich</b>	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	178
<b>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</b>	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	184
<b>Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon</b>	

# DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI



**Baymuradov Shoxrux Maxmudovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Biznes boshqaruvi kafedrası dotsenti v.b. PhD

**Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Menejment fakulteti BBA-87 guruhi talabasi  
mail: [dilmurodovkomiljon5@gmail.com](mailto:dilmurodovkomiljon5@gmail.com)



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada data-driven strategik menejmentning zamonaviy korxonalar faoliyatidagi ahamiyati, strategik qarorlar qabul qilish jarayonidagi o'rni hamda korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashdagi roli ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar hajmining keskin ortishi boshqaruv tizimlarini takomillashtirishni hamda qarorlar qabul qilishda an'anaviy yondashuvlardan ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tishni taqozo etmoqda. Tadqiqot davomida Big Data texnologiyalari, Business Intelligence platformalari, sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish vositalarining strategik menejmentdagi qo'llanilish imkoniyatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** data-driven menejment, strategik menejment, Big Data, Business Intelligence, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, strategik qarorlar, korxonalar samaradorligi, analitik boshqaruv, raqobatbardoshlik, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv.

**Abstract.** This article analyzes the significance of data-driven strategic management in the activities of modern enterprises, its role in strategic decision-making, and its impact on ensuring long-term competitiveness. In the context of the digital economy, the rapid growth of data volumes necessitates the modernization of management systems and the transition from traditional managerial approaches to data-driven decision-making models. The study examines the application of Big Data technologies, Business Intelligence platforms, artificial intelligence, and machine learning tools in strategic management.

**Keywords:** data-driven management, strategic management, Big Data, Business Intelligence, artificial intelligence, digital transformation, strategic decision-making, enterprise performance, analytical management, competitiveness, data-driven governance.

**Аннотация.** В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы значение data-driven стратегического менеджмента в деятельности современных предприятий, его роль в процессе принятия стратегических решений, а также влияние на обеспечение долгосрочной конкурентоспособности организаций. В условиях цифровой экономики стремительный рост объёмов данных требует совершенствования систем управления и перехода от традиционных управленческих подходов к модели управления, основанной на данных. В ходе исследования изучены возможности применения технологий Big Data, платформ Business Intelligence, искусственного интеллекта и методов машинного обучения в стратегическом менеджменте.

**Ключевые слова:** data-driven менеджмент, стратегический менеджмент, Big Data, Business Intelligence, искусственный интеллект, цифровая трансформация, стратегические решения, эффективность предприятия, аналитическое управление, конкурентоспособность, управление на основе данных.

## KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi hamda ma'lumotlar hajmining eksponensial sur'atlarda ortib borishi jahon iqtisodiyotida yangi boshqaruv tizimlarining shakllanishiga olib kelmoqda. Jahon miqyosida har kuni trillionlab ma'lumotlar yaratilmoqda va ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish hamda ulardan strategik qarorlar qabul qilishda samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Natijada



korporativ boshqaruv tizimlarida ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar tobora keng qo'llanilib, strategik menejmentning yangi bosqichi – data-driven strategik menejment konsepsiyasi shakllanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar nafaqat ichki operatsion jarayonlarni samarali boshqarishi, balki tez o'zgaruvchan bozor muhitiga moslashishi, iste'molchilar ehtiyojlarini aniq prognoz qilishi hamda strategik risklarni oldindan baholay olishi zarur. Biroq ko'plab korxonalarda strategik qarorlar qabul qilish jarayoni hanuzgacha rahbarlarning tajribasi, subyektiv qarashlari va intuitiv yondashuvlariga tayanib kelmoqda. Bu esa bozor sharoitidagi noaniqliklar kuchaygan davrda resurslardan samarasiz foydalanish, investitsion qarorlarning samaradorligi pasayishi, moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelishi hamda raqobat ustunligining susayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur muammolarni hal etishda data-driven strategik menejment muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv strategik boshqaruv jarayonlarini statistik ma'lumotlar, real vaqt rejimidagi analitika, Big Data texnologiyalari, Business Intelligence platformalari, sun'iy intellekt hamda mashinaviy o'qitish algoritmlariga tayangan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Natijada korxonalar bozor tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, mijozlar xulq-atvorini prognozlash, operatsion samaradorlikni oshirish va strategik qarorlar sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni<sup>□</sup> doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish hamda korporativ boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar data-driven menejment konsepsiyasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni<sup>1</sup> ham mavjud.

Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi data-driven strategik menejmentning nazariy va metodologik asoslarini o'rganish, uning korxonalar faoliyatidagi amaliy ahamiyatini tahlil qilish hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali korxonalarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik menejment korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi, raqobat ustunligini shakllantirishi va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlovchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy data-driven strategik menejment konsepsiyasining nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Strategik menejment nazariyasining rivojlanishida Maykl Porterning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning raqobat ustunligi va "Besh kuch modeli" konsepsiyalari korxonalariga bozor muhitini chuqur tahlil qilish hamda samarali strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Piter Druker esa boshqaruv samaradorligini tashkilot muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida baholab, maqsadlar bo'yicha boshqaruv konsepsiyasini ilgari surgan. Genri Mintzberg strategiyani dinamik jarayon sifatida talqin qilib, tashqi muhitdagi tezkor o'zgarishlarga moslashish zarurligini ta'kidlagan.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida strategik menejmentda ma'lumotlardan foydalanish masalalari alohida ilmiy yo'nalishga aylandi. Tomas H. Davenport ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni korxonalarining strategik ustunligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholagan. Erik Brynjolfsson va Endryu McAfee tadqiqotlarida esa raqamli texnologiyalar va Big Data'dan samarali foydalanayotgan korxonalar yuqori mehnat unumdorligi, tezkor boshqaruv va yuqori rentabellikka erishayotgani asoslab berilgan.

So'nggi yillarda Big Data, sun'iy intellekt va predictive analytics texnologiyalarining strategik menejmentdagi o'rni bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijalari ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari korxonalarining bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, data-driven strategik menejment zamonaviy korxonalar rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda data-driven strategik menejmentning korxonalar faoliyatidagi o'rni va iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida ilmiy tadqiqotning bir qator zamonaviy usullaridan foydalanildi.

<> <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv yordamida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi kompleks ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil usulidan foydalanilib, raqamli texnologiyalar, Big Data va Business Intelligence vositalarining korxonalar samaradorligiga ta'siri bo'yicha ilmiy manbalar hamda mavjud analitik ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, solishtirma tahlil usuli yordamida an'anaviy strategik boshqaruv modeli va data-driven boshqaruv tizimining afzalliklari hamda cheklovlari qiyosiy baholandi.

Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi data-driven strategik menejmentning zamonaviy korxonalar rivojlanishidagi ahamiyatini har tomonlama baholash hamda uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, data-driven strategik menejmentni samarali joriy etgan korxonalar bozor o'zgarishlariga tez moslashish, xarajatlarni optimallashtirish va strategik qarorlar aniqligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda Business Intelligence platformalari, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi strategik boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, data-driven strategik menejmentning asosiy samarali yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- real vaqt rejimidagi analitikadan foydalanish;
- predictive analytics tizimlarini joriy etish;
- KPI monitoringini avtomatlashtirish;
- mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- raqamli transformatsiyani jadallashtirish;
- sun'iy intellekt asosida prognozlash tizimlarini rivojlantirish.

Mazkur omillar korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Korxonaning data-driven strategik rivojlanish KPI ko'rsatkichlari (2023–2025)<sup>®</sup>

Rasm natijalari data-driven strategik menejmentning barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha barqaror o'sish kuzatilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Business Intelligence integratsiyasi 40 foizdan 85 foizgacha, ma'lumotlar xavfsizligi tizimi esa 45 foizdan 90 foizgacha oshib, eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Bu korxonalarda raqamli boshqaruv infratuzilmasini shakllantirish va ma'lumotlarni strategik aktiv sifatida boshqarish tendensiyasi kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash tizimlari hamda analitik qarorlar ulushining sezilarli darajada oshishi strategik qarorlar qabul qilish jarayonida sun'iy intellekt va analitik vositalarning roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Natijalar korxonalarda data-driven boshqaruv yondashuvlarini joriy etish operatsion samaradorlikni oshirish, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga



xizmat qilishini tasdiqlaydi (1-jadval).

#### 1-jadval

##### Starbucks kompaniyasida data-driven strategik menejment natijalari

Ko'rsatkichlar	O'sish
Mijozlar sodiqligi	25%
Mobil ilova foydalanuvchilari	40%
Marketing samaradorligi	30%
Sotuv prognozi aniqligi	35%
Operatsion samaradorlik	20%

Manba: <https://www.investor.starbucks.com/>

Starbucks kompaniyasi misolida data-driven strategik menejment tahlili. Starbucks zamonaviy data-driven strategik menejmentni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etgan kompaniyalardan biri hisoblanadi. Kompaniya mijozlarning xarid odatlari, mobil ilovadan foydalanish faolligi va sodiqlik dasturlari orqali yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida marketing, logistika hamda mahsulot strategiyalarini optimallashtirib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv vositalarining joriy etilishi natijasida mijozlar sodiqligi taxminan 25 foizga, mobil ilova foydalanuvchilari soni 40 foizga hamda marketing kampaniyalari samaradorligi 30 foizga oshgan. Shuningdek, sun'iy intellekt va analitik platformalar yordamida sotuvlarni prognozlash aniqligi sezilarli darajada yaxshilanib, operatsion samaradorlik darajasi ortgan.

Mazkur natijalar data-driven strategik menejment korxonalariga mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq tushunish, resurslardan samarali foydalanish va bozor sharoitlariga tez moslashish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu yondashuv zamonaviy korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik vositalardan biri sifatida baholanadi<sup>2</sup> (2-jadval).

#### 2-jadval

##### Amazon kompaniyasining data-driven strategik rivojlanish ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil (Prognoz)	Strategik ahamiyati
1	SI asosidagi tavsiya tizimlari samaradorligi	72%	81%	90%	Mijozlar sodiqligi
2	Real vaqt analitikasi darajasi	60%	78%	92%	Tezkor boshqaruv
3	Logistika optimizatsiyasi	68%	80%	93%	Xarajatlarni kamaytirish
4	Cloud texnologiyalar integratsiyasi	75%	88%	96%	Digital transformatsiya
5	Mijozlar ma'lumotlari tahlili	70%	85%	95%	Marketing samaradorligi
6	Avtomatlashtirilgan qarorlar ulushi	45%	62%	80%	Strategik aniqlik

Manba: <https://www.amazon.com>

Jadval ma'lumotlari Amazon kompaniyasining ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini izchil rivojlantirib borayotganini ko'rsatadi. Kompaniya sun'iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar va analitik platformalar yordamida biznes jarayonlarini optimallashtirib, global bozorda barqaror raqobat ustunligini shakllantirmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari samaradorligi mijozlarga ularning qiziqishlari va xarid tarixiga mos mahsulotlarni tavsiya etish darajasini ifodalaydi. Jadvalda ushbu ko'rsatkichning 72 foizdan 90 foizgacha oshishi Amazonning mashinaviy o'qitish algoritmlarini takomillashtirayotganini ko'rsatadi. Natijada foydalanuvchilarga individual takliflar berilib, mijozlar sodiqligi va xaridlar soni ortmoqda.

Real vaqt analitikasi darajasi korxonaning ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish imkoniyatini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichning 60 foizdan 92 foizgacha oshishi Amazonning bozor talabi, narxlar o'zgarishi va mijozlar xatti-harakatlarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini tezroq va aniqroq qabul qilishga xizmat qiladi.

<sup>2</sup> Manba: Starbucks Digital Strategy Reports, Loyalty Program Analytics, Business Intelligence Adoption Studies asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.



Logistika optimizatsiyasi mahsulotlarni saqlash, taqsimlash va yetkazib berish jarayonlarining samaradorligini ifodalaydi. Amazon sun'iy intellekt va prognozlash tizimlari orqali qaysi hududda qaysi mahsulotga talab yuqori bo'lishini oldindan aniqlaydi. Natijada ombor xarajatlari kamayib, yetkazib berish tezligi oshmoqda.

Bulutli texnologiyalar integratsiyasi bulutli texnologiyalardan foydalanish darajasini tavsiflaydi. Amazon Web Services (AWS) platformasi orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash imkoniyati yaratilgan. Ko'rsatkichning 75 foizdan 96 foizgacha oshishi kompaniyada raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashayotganini anglatadi.

Mijozlar ma'lumotlari tahlili xaridorlarning ehtiyojlari va xulq-atvorini o'rganish darajasini bildiradi. Amazon millionlab foydalanuvchilarning qidiruvlari, xaridlari va qiziqishlarini tahlil qilib, marketing strategiyalarini shakllantiradi. Shu sababli ushbu ko'rsatkichning 70 foizdan 95 foizgacha oshishi marketing samaradorligining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib kelmoqda.

Avtomatlashtirilgan qarorlar ulushi sun'iy intellekt va algoritmlar yordamida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining ulushini ifodalaydi. Narx belgilash, mahsulot tavsiyasi va logistika rejalashtirish kabi jarayonlarning avtomatlashtirilishi natijasida ushbu ko'rsatkich 45 foizdan 80 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu esa inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirib, strategik qarorlar aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadval natijalari Amazon kompaniyasida data-driven strategik menejmentning barcha asosiy yo'nalishlar bo'yicha izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, real vaqt analitikasi va bulutli texnologiyalarni keng joriy etish kompaniyaga operatsion xarajatlarni optimallashtirish, mijozlar ehtiyojlarini aniqroq qondirish hamda global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini bermocda. Shu jihatdan Amazon tajribasi data-driven boshqaruvning zamonaviy korxonalar rivojlanishidagi amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etuvchi muvaffaqiyatli model hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari data-driven strategik menejment zamonaviy korxonalar rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari strategik qarorlar sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, risklarni samarali boshqarish hamda korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida strategik menejmentning klassik nazariyalari va zamonaviy data-driven boshqaruv konsepsiyalari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Big Data, Business Intelligence, sun'iy intellekt va real vaqt analitikasi texnologiyalaridan samarali foydalanayotgan korxonalar bozor o'zgarishlariga tezroq moslashish, mijozlar ehtiyojlarini aniqroq prognozlash hamda strategik resurslardan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Amazon kompaniyasi misolida o'tkazilgan tahlillar ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari mijozlar sodiqligini oshirish, logistika jarayonlarini optimallashtirish, marketing samaradorligini kuchaytirish va strategik qarorlar aniqligini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bu esa data-driven strategik menejmentning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- korxonalarda Business Intelligence va Big Data platformalarini keng joriy etish;
- sun'iy intellekt va predictive analytics asosidagi strategik prognozlash tizimlarini rivojlantirish;
- real vaqt monitoringi va KPI dashboard tizimlarini avtomatlashtirish;
- xodimlarning data analytics, Business Intelligence va raqamli boshqaruv bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ma'lumotlar xavfsizligi hamda kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash;
- raqamli transformatsiya strategiyalarini korxonalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga aylantirish;
- strategik qarorlar qabul qilish jarayonida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirish.

Data-driven strategik menejment korxonalarini boshqarishning zamonaviy va samarali modeli hisoblanadi. Mazkur yondashuvni amaliyotga keng joriy etish korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish, iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish hamda global raqobat muhitida barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age / E. Brynjolfsson, A. McAfee. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
3. Davenport T., Harris J. Competing on Analytics / T. Davenport, J. Harris. – Boston: Harvard Business Review Press, 2017.



4. Drucker P.F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices / P.F. Drucker. – New York: Harper & Row, 1985.
5. Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action / R. Kaplan, D. Norton. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
6. Laudon K., Laudon J. Management Information Systems / K. Laudon, J. Laudon. – Pearson Education, 2021.
7. Marr B. Big Data in Practice / B. Marr. – Wiley Publishing, 2016.
8. OECD. Digital Transformation and Strategic Management. – Paris: OECD Publishing, 2025.
9. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors / M. Porter. – New York: Free Press, 1980.
10. Provost F., Fawcett T. Data Science for Business / F. Provost, T. Fawcett. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2013.
11. World Bank. Data Economy and Business Competitiveness. – Washington, DC: World Bank Publications, 2025.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)